
Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'ldi

Bugun 2018 yil 13 aprel kuni Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya kun tartibiga bitta - tashkiliy masala kiritildi. Unga ko'ra, Qo'qon shahri hokimi Rahmatali Jalilov o'z arizasiga ko'ra egallab turgan lavozimidan ozod qilinib, ushbu vazifaga Ma'ruf Usmonov tayinlandi.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, Ma'ruf Usmonov bunga qadar O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan edi. Shuningdek, u turli yillarda prokuratura organlarida, jumladan, Toshkent va Farg'ona viloyati prokuraturalarida mas'ul lavozimlarda ishlagan. Qo'qon shahar hokimi lavozimida 2004-2006 yillarda ham mehnat qilgan.

Sessiyada viloyatdan saylangan O'zbekiston Respublikasi Senati a'zolari, deputatlar, viloyat hokimining o'rinbosarlari, Qo'qon shahar hokimining o'rinbosarlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari hamda Qo'qon shahar faollari ishtirok etdi.

2018-04-13 20:48:23